

## TIRIK TABIAT TO‘G‘RISIDAGI TASAVVURLARNING SHAKLLANISHI.

**Otabekova Sayyora Suyunboyevna**

XTBga qarashli Jizzax shahar

19 – umum o‘rta ta’lim maktabi

biologiya fani o‘qituvchisi

### ANNOTATSIYA

Evolyutsiya nazariyasi fani – nazariy biologiyaning asosi, uning o‘ziga xos poydevoridir. U evolyutsion ta’limot yoki darvinizmning tabiiy tanlanish konsepsiyasi negizida shakllanib, hozirgi paytda uni biologiyaning fundamental yo‘nalishlari asosida boyitgan holda tiriklik haqidagi fanning nazariy poydevoriga aylangan.

**Kalit so‘zlar:** tiriklik, organik olam, nazariya, makromolekulyar, antropik omillar, tabiiy, su‘niy tanlash, evolyutsion omil, evolyutsion jarayon, populyasiya, biologik hodisa, irsiyat

### ABSTRACT

The science of the theory of evolution is the basis of theoretical biology, its unique foundation. It was formed on the basis of the theory of evolution or the concept of natural selection of Darwinism, and now it has become the theoretical foundation of the science of life, enriching it based on the fundamental directions of biology.

**Key words:** life, organic world, theory, macromolecular, anthropic factors, natural, artificial selection, evolutionary factor, evolutionary process, population, biological phenomenon, heredity

## АННОТАЦИЯ

Наука теории эволюции является основой теоретической биологии, ее своеобразным фундаментом. Она сформировалась на основе теории эволюции или концепции естественного отбора дарвинизма, а теперь стала теоретической основой науки о жизни, обогатив ее на основе фундаментальных направлений биологии.

**Ключевые слова:** жизнь, органический мир, теория, макромолекулярные, антропные факторы, естественный, искусственный отбор, эволюционный фактор, эволюционный процесс, популяция, биологическое явление, наследственность.

Biologik evolyutsiya tirik tabiatning takrorlanmaydigan va ma'lum darajada yo'naltirilgan tarixiy taraqqiyotidir. U populyasiyalarning genetik tarkibini o'zgarishi, moslanishlarni shakllanishi, turlarni hosil bo'lishi va ularning o'lishi bilan bog'liq bo'lib, biogeosenozlarni va yoppasiga biosferani yangilanishiga sababchi bo'ladi. Rivojlanib turuvchi tirik tizimlarni hamisha yashayotgan sharoitlarga mos kelishi biologik evolusiyaning asosiy natijasidir.

Hozirgi davrda antropik omillar ta'sirida biosferada sodir bo'layotgan o'zgarishlar insonlarni tashvishga solmoqda. Odamni tabiiy tizimlarning hayotiga o'ylamay qo'pol ravshda aralashuvi, biosfera evolyutsiyasi qonuniyatlarini yetarli darajada bilmaslik oqibatida kurrai zaminimizning qator hududlarida tabiiy muvozanat buzildi. Natijada, tiriklik evolyutsiyasining «illatlari» sifatida zararkunandalik va boshqa qator ilgari tabiat bilmagan biologik hodisalar kelib chiqdi. Agarda insonni biosfera bilan munosabatlari ilmiy asosda tashkil etilmasa qayd etilgan holatlarning oqibatlari kelajakda yanada xavfliroq bo'lishi mumkin. Biosfera evolyutsiyasining o'tmishini, o'ziga xos xususiyatlarini, turlar majmualarining hozirgi zamonda va kelajakda rivojlanish qonunlarini bilmasdan tabiatni saqlab qolishga qaratilgan ilmiy tavsiyalarni asoslab bo'lmaydi.

Shunday qilib, evolyutsion jarayon qonuniyatlarini chuqur o‘rganib, uni mukammal bilib olish asosida boshqariladigan evolyutsiyaga o‘tish (tirik jonivorlarni va tabiatni odamzod talablariga mos ravishda qayta o‘zgartirish) yangicha ma’no va alohida ahamiyat kasb etadi. Mazkur muammoni hal qilish evolyutsiya nazariyasi fanining birinchi galdagi eng muhim vazifasidir.

Evolyutsion jarayonni boshqarishga erishish orqali insoniyat oldida turgan bosh muammo – oziq-ovqat bilan ta’minlanish muammosini hal etib, odamzod tabiiy oziqa resurslaridan foydalana olishga to‘liq erishadi. (ma’lumki, hozirgi paytda qishloq xo‘jaligi yetkazib beradigan oziq-ovqatlar insonni bu mahsulotlarga bo‘lgan talabini qondira olmayapti).

Inson salomatligiga xavf-xatar tug‘diruvchi qator kasalliklardan (ayniqsa, yuqumli va irsiy kasalliklardan) qutulish tabiiy evolyutsiyani boshqarishga o‘tish orqali erisiladi, chunki ularning kelib chiqish sabablari tirik tabiat hayoti bilan bog‘liq. Qayd etilganlar boshqa evolyutsion hodisalar – tekinxo‘rlik hamda uning asoratlari va hokazolar sabablarini tushunishga imkoniyat beradi.

Tiriklik muammosi tadqiqotchilarni qadimgi zamonlardan qiziqtirib kelgan. Tirik tabiatning rivojlanishi haqidagi dastlabki g‘oyalar Hindiston, Xitoy, Misr, Gretsiya olimlarining ishlarida hozirgi eramiz (milod) dan 2000-1000 yil ilgari aytilgan. Tabiatning birligi haqidagi g‘oyani ilgari surgan ulkan «fikir titani» Aristotel o‘zining «mavjudotlar narvoni» misolida jonsiz tabiatni minerallardan insongacha bo‘lgan taraqqiyot yo‘lini tasavvur etishga urinadi. Bu va boshqa xildagi qadimgi olimlarning qarashlari biologiyada tiriklik taraqqiyoti haqidagi keyingi g‘oyalarni rivojlanishiga o‘z ta’sirini ko‘rsatdi.

Hozirgi nazariy biologiya asoslarini, jumladan evolyutsiya nazariyasining shakllanishiga O‘rta Osiyo olimlarining qo‘shgan dastlabki hissasi beqiyosdir. O‘rta asrlar boshlanishida O‘rta Osiyo dunyo sivilizasiyasining o‘choqlaridan biri bo‘lgan. «Sharq Renessansi» davrida bu yerda ilm-fan taraqqiyoti natijasida turli yo‘nalishlarda, jumladan biologiya soxasida yirik tadqiqotlar o‘tkazilgan. O‘rta

Osiyoda birinchi Mamun akademiyasi («Donishmandlar uyi») ning faoliyati Abu Rayxon Beruniy, Abu Ali Ibn Sino va boshqa yirik olimlarning ijodlari bilan bog‘liq.

### **ASOSIY ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)**

1. By Roland W. Scholz. Environmental Literacy in Science and Society: From Knowledge to Decisions. New York, USA, 2011; Hardback, 631 pp.
2. Андреев И.Ш., Л.С.Родман. – Ботаника. М. Учебник для с/х институтов. “Колос” 2003.
3. Dadaev S., Saparov Q. Zoologiya. “Iqtisod- moliya” Toshkent 2008.
4. Dolgacheva V.S. Botanika M. Uchebnik dlya ped. institutov. Akademiya 2003.